



MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILAR KREATIV VA IJTIMOY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ergashev Murodbek Ikromovich
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada musiqaning inson ongi va ma'naviy dunyosiga ta'siri, musiqa ta'limida o'quvchilar kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy vazifalari, shuningdek o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *musiqa, musiqiy ta'lim, xulq, insoniy fazilat, kreativlik, ijtimoiy kompetensiya, san'at, mediaresurs.*

Аннотация. *В данной статье изложены влияние музыки на сознание и духовный мир человека, основные задачи развития креативных и социальных компетенций учащихся в музыкальном образовании, а также педагогико-психологические особенности развития креативных и социальных компетенций учащихся.*

Ключевые слова: *музыка, музыкальное образование, поведение, человеческая добродетель, креативность, социальная компетентность, искусство, медиаресурс.*

Abstract: *This article outlines the influence of music on the consciousness and spiritual world of a person, the main tasks of developing the creative and social competencies of students in music education, as well as the pedagogical and psychological features of the development of creative and social competencies of students.*

Key words: *music, music education, behavior, human virtue, creativity, social competence, art, media resource.*

KIRISH

“O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy asoslangan kompetensiyalarni fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda”.²⁷ Shu ma'noda ta'limning strategik vazifalarini hal qilishning samarali yondashuvlarini izlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu ta'lim siyosati va amaliyotini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, sifatni ta'minlash mexanizmlarini o'z ichiga olishni nazarta tutadi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli “Uzlukeiz ma'naviy tapbiya Konsepsiyasi” / “Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazaci”, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-con, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-con. <https://www.lex.uz/docs/4676839>.



Har bir jamiyat taraqqiyotida ta'lim tizimining takomillashuvi muhim rol o'ynaydi. Shu ma'noda, ta'limga kompetent yondashuv masalasi dunyo miqyosida tadqiq etilayotgan bir pallada, turli fanlar negizida, xususan, musiqa ta'limi asosida o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo'nalishi mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Musiqa – hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega!"¹, deb aytgan ta'kidlari zahirida o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda musiqa ta'limining o'rni alohida ahamiyat kasb etishini tafakkur qilish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musiqiy ta'limning vazifalaridan biri bu musiqiy adabiyotlarning faol tarbiyaviy roli orqali o'quvchilarning dunyoqarashi, ichki va tashqi madaniyati, ularda ijodkorlik va faollikni shakllantirishdan iborat. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'z fikrini bayon etishga, o'z nuqtai nazarlarini qo'llab-quvvatlashga undash maqsadga muvofiqdir.

Mashhur faylasuf, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873-950) "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida" asarida musiqa ilmi haqida fikr yuritib shunday fikrlarni yozadi: "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lmagan odam xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tanning salomatligi uchun foydalidir. Chunki tan kasal bo'lsa, ruh ham so'nadi, tan to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun musiqa cholg'ularida ijro etiladigan ovoz ta'sirida ruh sog'ayadi, uning yordamida esa tana sog'ayadi, ruh o'z kuchlarini tartibga solib, undan ozuqa oladi".³ Olimning xulosalaridan tushunish joizki, musiqa inson uchun zarur omil hisoblanib, u shaxsning ham ruhan, ham jismonan kamol topishida asosiy ahamiyatga ega.

Ulug' alloma, olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) "Kitobi shifo" asarida bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, musiqaning ahamiyatini quyidagicha keltiradi: "Chaqaloqning istagini qanoatlantirish uchun unga ikki narsani qo'llash kerak. Birinchidan, bolani ohista tebratish, ikkinchidan, uni uxlatish uchun an'anaga aylanib qolgan ohang kuyi bilan allalash. Shu ikkisini qabul qilish sifatiga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyasi va ruhiyati musiqaga bo'lgan qobiliyatini shakllantiradi". Ko'rinadiki, musiqa inson dunyoga kelishi bilan uning ichki ma'naviy olimiga aylanadi. Milliy musiqa asosida insonning go'zallika bo'lgan his-tuyg'ulari shakllantirilib, o'zining eng yaxshi g'oyalari bilan yoshlarni har jihatdan kamolga yetkazish manbai sanaladi.

¹ Elektron manba: <https://iiv.uz/oz/news/>

³ Norxujayev N., Ganieva G. Musiqa. 1-sinf. Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: 2021. – B. 7.



Yirik tasavvuf nazariyotchisi Abu Bakr Kalobodiy musiqa tovushlari – nag'malarni ta'riflab, ularni "...jon quvvati va ruh ozig'i turur. Agar jon nag'madan quvvat topsa, o'z maqomi sari ishrof ayladi, ul maqom ila mashg'ul bo'lardi"⁴, deb ta'kidlagan edi.

Olimlarning fikrlaridan ayon bo'ladiki, musiqa inson mavjudligini, xulqiy kamolotini, sihat-salomatligini ta'min etuvchi muhim omillardan biridir. Xulqning muvozanatdan chiqishi shaxsning insoniy fazilatlaridan chekinishini anglatadi. Bunday hollarda inson o'z qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini yo'qota boradi. Musiqa inson xulqini tartibga soladi, tarbiyalaydi, kamolga yetkazadi.

Ruh va tana uyg'unlikda mavjuddir. Tananing nosog'lom bo'lishi, kasallikka uchrashi ruhiyatga ta'sir etmay qolmaydi. Tushkunlikka berilish, qo'rquv, sarosima ruhiy zo'riqishni orttirib, tananing kasallikdan sog'ayishiga to'sqinlik keltirib chiqaradi. Musiqa ruhga ma'naviy-ma'rifiy ozuqa beradi. Ruhiy zo'riqish, toliqishlar vaqtida unga orom baxsh etadi, tetiklantiradi, umid va ishonch beradi. Ruhiy ko'tarinkilik tanadagi turli kasalliklarning shifo topishiga zamin yaratadi. Demak, musiqa ruh tarbiyachisi, tana shifokori, xulq murabbiyidir. Musiqa madaniyati fani o'qitilishi jarayonida o'quvchilarda musiqaning ana shunday kuch-qudratidan foydalana olish layoqati shakllantiriladi.

D.B.Kabalevskiyning mulohazalariga ko'ra "Ommaviy musiqiy ta'limning asosiy vazifasi... musiqani o'zini o'rgatish emas, balki musiqa orqali o'quvchilarning butun ma'naviy olamiga, birinchi navbatda, ularning axloqiga ta'sir etishdan iborat".²⁸ Axloq me'yorlari va mezonlarini anglash o'quvchi shaxsining ijtimoiy muhitga moslashishida, ularda o'z tengdoshlari va atrofdagi insonlar bilan kechadigan muomala-munosabat jarayonlarining ijobiy tashkil etilishiga yordam beradi.

Professor L.R.Madorskiy "Muzikalnoe vospitanie rebyonka (Bolaning musiqiy tarbiyasi)" kitobida bolalarni musiqani sevishga o'rgatish asosiy masala ekanligini bayon etib, "bola kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, musiqiy ta'lim hamma uchun zarur. Musiqiy bilimni imkon qadar tezroq o'rgatish va bunga bolani qiziqtirish lozim"²⁹ ekanligini ta'kidlaydi.

Rus musiqiy psixologi, musiqashunos olim D.K.Kirnarskaya "Musiqani musiqachi bo'lish uchun emas, balki har qanday kasbda eng yaxshi bo'lish uchun o'rganish lozim"³⁰, deb bildirgan xulosalari musiqa ta'limiga bo'lgan qiziqishlarni yanada oshiradi.

Taniqli kompozitor Rustam Abdullayev "So'z birlamchimi yoki musiqa?.." degan savolga "Fikrimcha, albatta musiqa birlamchi. Chunki afsonalarga ko'ra, Xudo Odam Atoni yaratganida musiqa yordamida uning tanasiga jon kiritgan ekan. Demak, musiqa

⁴ Ibrohimov O., Sadirov J. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. –T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 82 b.

²⁸ Готсдинер А. Музыкальная психология. – М.: Просвещение, 1993. – С. 38-77.

²⁹ Мадорский Л.Р. Музыкальное воспитание ребенка. – М.: Айрис-пресс, 2011. – 128 с.

³⁰ Кириарская Д.К. Зачем нужно массовое музыкальное образование? Основной вопрос: педагогика – наука или искусство? // Художественное образование и наука. 2016. №3. – С. 44-54. <https://psy.su/feed/9417/>



insonga ruh baxsh etadi...”⁵, - deb bergan javobi insoniyat o'z ibtidosidan boshlab musiqa bilan chambarchas bog'langanini, musiqa uning hayotiy zarurati, ruhiy oziqlanish manbalaridan biri ekanini dalillaydi. Kompozitorning farzand tarbiyasida musiqaning ahamiyati haqida: “go'zal musiqa insonni go'zalikka, komillikka, bunyodkorlikka yetaklaydi”, - deb bildirgan fikrlari musiqa ta'limiga bo'lgan e'tibor ko'lamini kengaytiradi.

O'rganilgan ilmiy-nazariy adabiyotlar tahliliga ko'ra aytish joizki, musiqa san'at turlarining eng qadimiysidir. Uning tarixi diniy, maishiy marosimlar va ijtimoiy marosimlardan kelib chiqadi. Biroq, bundan oldinroq, san'at turi sifatida tug'ilishidan oldin ham, inson ma'lum bir balandlikdagi tovushlarni rejimlar, o'lchovlar va ritmik ohanglar yordamida tartibga solish mumkinligini anglab yetmasdan oldin ham, ovozli signallar mavjud edi. Masalan, hushtak, chiyillash, qichqiriq yoki ingrashni eslatishi mumkin bo'lgan bu signallar musiqa san'atining ajdodlar asosi, poydevori edi.

Insonlar til va nutq mavjud bo'lmaganda ham tovushlar yordamida muloqot qilgan va bu shovqinga o'xshash tovushlar bilan o'zaro ta'sir qilishda psixika muloqot qilish qobiliyatini, boshqa odamlarni tushunish va his-tuyg'ular, niyatlarni ifodalash qobiliyatini shakllantirgan. Ya'ni, musiqaning psixologik eng qadimiy asosi, ko'pincha noaniq va qo'pol ovozli signallardir. Ushbu signallarning mazmuni nima edi? Ular nimaga murojaat qilishdi? Albatta, ularning ba'zilar xavf xabari, o'zi va yaqinlarini himoya qilishga bo'lgan chaqiriqlardan iborat edi.³¹

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Musiqa – jamiyat rivojlanishining hamma bosqichlarida ham insonni tarbiyalash va ma'naviy boyitishning bir vositasi sifatida xizmat qiladi. Hozirgi bosqichda, ya'ni fan-texnika taraqqiy topgan sharoitda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati yanada ortdi:

Birinchidan, texnikaning rivojlanganligi, hayot maromining tezlashuvi, inson o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlarning ko'payishi uning aqlini takomillashtirsa-da, hissiyotlarini ma'lum darajada qashshoqlantirishi ham mumkin. Buning uchun o'quvchilarni har tomonlama va uyg'un kamol toptirishning barcha tadbirlari qo'llanmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa g'oyat muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, chet mamlakatlardan kirib kelib, yoshlar o'rtasida keng tarqalayotgan, ularning ahloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va shundan ta'sir ko'rsatayotgan “rok”, “pop” kabi “jazava”li musiqalarning ommaviylashuviga qarshi kurashish zarurati tug'ildi. Bu kurashning dastlabki omili o'quvchilarda musiqa ta'limiga bo'lgan to'g'ri ma'naviy munosabatni, milliy g'ururni tarkib toptirishdir.

Musiqa insonning ongi va ma'naviy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatadi. Huddi shu sababli u inson uchun ma'naviy go'zallikning, qalbi poklikning katta manbai bo'lishi ham, uni qo'rslikka odatlantirishi, umidsizlikka solishi, bag'ritosh va xudbin qilib

⁵ Электрон манба: <https://manzur.uz/?p=47> М.Бекчанованинг композитор Р.Абдуллаев билан “Ўқимли мусика зиф хужайраларни жонлантиради” мавзусида ўтказилган интервьюси.

³¹ <https://psy.su/feed/9417/>



qo'yishi ham mumkin. Bularning hammasi inson qanday musiqani tinglashiga va uning mohiyatini qanchalik to'g'ri baholashiga bog'liqdir.

Musiqaning insonga ta'siri hamma vaqtlarda muhokama qilingan. Musiqa – inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Jamiyat rivojlanishining qadimiy davrlaridan musiqaning hayvonlar, o'simliklar va insonlarga ta'siri haqida asrlar davomida to'plangan bayonotlar, tajribalar mavjud.

Musiqiy tarbiya bola shaxsiyatini rivojlantirishda katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, musiqa darslari bolada mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, harakatlarni mukammal muvofiqlashtirishni rivojlantiradi, bu nafaqat musiqada, balki inson faoliyatining boshqa kasblarida va sohalarida ham foydalidir.

Keng ma'noda o'quvchi shaxsi ijtimoiylashuvining bir qismi hisoblangan muloqot qobiliyatlari musiqa faoliyati bilan rivojlantiriladi: uzoq vaqt davomida musiqa bilan shug'ullangan va tirishqoqlik bilan muvaffaqiyatli muloqot qiladiganlar, tushunish va moslashuvchanlikni namoyish etadilar. Musiqa san'ating o'quvchi shaxsi histuyg'ulariga bo'lgan ta'siri esa bevosita uning ijodiy fikr-mulohazalarini o'sishiga, uning tasavvur dunyosining kengayishiga, qo'yinki, kreativ salohiyatining rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shunday qilib, musiqa ta'limida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalar – o'quvchilarning egallagan musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlarining shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishga imkoniyat shakllanadi. Kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarga asoslangan musiqa ta'limi o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, ijodkorlik, axborot texnologiyalar va mediaresurslardan faoliyati davomida foydalana olish, shu soha bo'yicha sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, o'quvchilardagi guruhlarda, jamoalarda ijodiy ishlay olish, hamkorlik qila olish kabi bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiya darajalarini shakllantirish bo'yicha musiqa ta'limi maqsadlarini, baholash mezonlarini aniq va yaqqol namoyon etuvchi quyidagi tamoyillar belgilanadi:

1. Bilish, o'rganish – o'rgatilayotgan mavzu yoki musiqiy asarni bilib olish va qayta aytib bera olish. Ya'ni, bu o'quvchining keng umumiy madaniyatini musiqiy ta'lim sohasida bilimlarni chuqur egallashni nazarda tutadi. O'quvchining umumiy madaniyati uning bilimini muttasil oshirib borishga o'rgatadi.

2. Tushunish, idrok qilish – o'rganilgan mavzu yoki musiqiy asarlarni xotirada saqlab qolish, mazmun-mohiyatini, xarakterini idrok etish va tushunganligini namoyon qilish, jarayon yoki turli holatlarga tanqidiy baho bera olish, bahs-munozaralarda ishtirok eta olish, o'zining fikri va qarashlarini musiqa ta'limida olgan bilimlari asosida himoya qila olish.

3. Qo'llay olish – musiqa ta'limida o'rganilgan umumiy tushuncha, atamalarni misollar orqali tatbiq eta olish hamda, samarali qo'llay olish, jamoada ishlay olish va ijodkorlik, yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish, boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish.



4. Tahlil qilish – berilgan amaliy va nazariy topshiriqlarni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni turli manbalardan topish, tartibga keltirish, tahlil qilish xulosa chiqarish.

5. Tanqidiy va tizimli fikrlash – mavzularni, musiqiy asarlarni, musiqiy adabiyotlarni tadbiq qilishda, qaror qabul qilishda aniq va puxta dalillar keltirishdan foydalanish, tizimli voqealar, hodisalar, vaziyatlar o'rtasidagi uzviylikni anglash.

6. Baholash va xulosa chiqarish – musiqa olamidagi voqea va hodisalarga baho bera olish, muammoli vaziyatni ma'lum ichki yoki tashqi mezonlar asosida baholash va taqqoslash, sabab va oqibatlarini o'rganish, erishilgan yoki erishilayotgan natijalarni tahlil qilish asosida tanqidiy va tizimli fikrlashni o'z ichiga oladi.

Kreativ va ijtimoiy kompetensiya sifatlarining rivojlanish muammosi ilmiy adabiyotlarda o'z yechimiga ega, ammo shaxsning subyektiv sifati tariqasida kreativ va ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish orqali o'quvchilarda o'z bilimini sof individual o'zlashtirishini hisobga olish, o'qitishning subyektiv motivlari, o'qitish predmetiga munosabat, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari va tajribalariga bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalarini ishlab chiqish zarurati kreativ va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda individual yondashuvga murojaat etishni talab etadi. Agar musiqiy bilimlar umumiy o'rta ta'lim tizimida o'rgatilib, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish yuqori darajada tashkil etiladigan bo'lsa, keyingi ta'lim bosqichlarida yoshlarning ilm, izlanish, ijodkorlik yo'lida o'z bilimini oshirish – ta'lim-tarbiya, madaniyat va ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etishi ta'minlanadi.

Kreativ va ijtimoiy kompetensiyalar murakkab hamda fanlararo tushuncha bo'lib, uni talqin qilishda xorij miqyosida ham turli soha mutaxassisleri tomonidan yillar davomida turli yondashuvlarni olib borilgan.³²

Masalan, neyrologlar tomonidan taqdim etilgan tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatadi, har qanday kreativ shaxsning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari uning o'ziga xos rivojlanishi bilan bog'liq va quyidagi shartlar bilan belgilanadi:

- biologik: neyrofiziologik miya tuzilishi ichki shartlilikning tashqi shartlardan ustunligini belgilaydi;³³
- psixologik: ijtimoiy o'zaro ta'sir;³⁴

³² Allsup, R. E., & Shieh, E. (2012). Social Justice and Music Education. The Call for a Public Pedagogy. *Music Educators Journal*, 98(4), 47-51.

Arifin, H. M. (2015). The Influence of Competence, Motivation, and Organisational Culture to High School Teacher Job Satisfaction and Performance. *International Education Studies*, 8(1), 38.

Burnard, P., & Murphy, R. (2013). *Teaching music creatively*. London: Routledge.

Colwell, R., & Froehlich, H. (2015). *Sociology for music teachers*. London: Routledge.

Gerich, M., & Schmitz, B. (2016). Using Simulated Parent-Teacher Talks to Assess and Improve Prospective Teachers' Counseling Competence. *Journal of Education and Learning*, 5(2), 285.

<https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1114625.pdf>

³³ De Bono, E. (1976). *Teaching thinking*. London: Temple Smith.

³⁴ Hallam, S., Cross, I., & Thaut, M. (2016). *The Oxford handbook of music psychology*. Oxford: Oxford University Press;

Shadrin, N. S. (2009). *Personality Psychology: a textbook for students of psychology majors*. Pavlodar: Kereku.



– intrapersonal: boshqa mutaxassisliklardan farqli o'laroq, san'at sohasi vakillari kuchli kreativ dominantga ega.³⁵

Demak, san'atning musiqa sohasi yetuk vakillari yoki professional musiqa o'qituvchilarida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalar boshqalarga qaraganda yuqori darajada rivojlangan bo'ladi. Bu esa aynan musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini o'stirish namunali natijalarni yuzaga chiqishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim (1-rasmga qarang):

musiqa ta'limida o'quvchilarni mustaqil ijodkorlikka, izlanishga tayyorlash va ularda musiqiy savodxonlikni rivojlantirish

musiqa ta'limi jarayonida o'quvchilarga keng dunyoqarash va ijodkorlik g'oyasini singdirib borish

musiqa ta'limida o'quvchilarga vatanparvarlik, millatparvarlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik tushunchalari mazmunini singdirgan holda jamiyatdagi ishtirokini ta'minlash

musiqa ta'limida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'quv mashg'ulotlaridagi faolligini oshirish asosida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish

1-rasm. Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi asosiy vazifalari.

XULOSA

Dunyo miqyosida ta'limga qaratilgan e'tibor bevosita musiqa ta'limi uchun va musiqa ta'limi mutaxassislari uchun istiqbolli rivojlanishlarni nazarda tutmoqda. Xususan, Amerikaning madaniyat va biznes markazi hisoblangan Atlanta shahrida Musiqa o'qituvchilari milliy assotsiatsiyasi (Music Teachers National Association – MTNA) – bir asrdan ko'proq vaqt davomida tajribali o'qituvchi va o'z karerasini boshlagan musiqa o'qituvchilarining hamkorlikdagi hamjamiyatining asosi bo'lib kelgan.

MTNA a'zoliqi musiqa mutaxassisi sifatidagi martabani shunchaki ko'tarishdan ko'proq narsani amalga oshiradi – u uni qo'llab-quvvatlaydi, to'ldiradi va shakllantiradi. Bu butun mamlakat va dunyo bo'ylab musiqa o'qituvchilariga tarmoq, yetakchilik, murabbiylik va ta'lim orqali yaxshi o'qituvchilar bo'lish imkoniyatini beradi.

MTNA a'zoliqi quyidagilarni taqdim etadi:³⁶

³⁵ Hancock, C. B. (2016). Is the Grass Greener? Current and Former Music Teachers' Perceptions a Year After Moving to a Different School or Leaving the Classroom. *Journal of Research in Music Education*, 63(4), 421-438.



– Tengdosh aloqalari (Peer Connections) – bu musiqa kasbidagi hamfikrlar uchun mahalliy va milliy miqyosda hamkorlik qilish, muloqot qilish uchun savdo nuqtalari, forumlar hamda kanallar tarmog'i.

– Doimiy ta'lim (Ongoing Education) – konferensiyalar, tadbirlar, o'qitish bo'yicha maslahatlar va pedagogika, texnologiya va veb-trendlar, master-klasslar va axborot sessiyalari.

– Bebaho manbalar (Invaluable Resources) – sertifikatlash, nashrlar va maslahat xizmatlaridan tortib musobaqalar, o'qituvchilar malakasini oshirish uchun grantlar va sug'urta kabi son-sanoqsiz imtiyozlarga kirish.

Shuningdek, Xalqaro musiqa ta'limi jamiyati (International Society for Music Education – ISME) saksondan ortiq mamlakatlarda mavjud bo'lib, u musiqa o'qituvchilari uchun eng yirik jamiyatlardan biridir. ISME musiqani boshdan kechirish madaniyati yoki o'ziga xosligidan qat'i nazar, har bir inson hayotining muhim qismidir, deb hisoblaydi. Jamiyat musiqa o'qituvchilarining xalqaro hamjamiyatini yaratish va qo'llab-quvvatlash, jahon musiqa o'qituvchilari o'rtasida global madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish va butun dunyo bo'ylab barcha yoshdagi odamlar uchun musiqa ta'limini rivojlantirish orqali ushbu tajribalarni oshirishga umid qilmoqda.³⁷

Musiqa ta'limi milliy assotsiatsiyasi (National Association for Music Education – NAFME) dunyodagi eng yirik san'at tashkilotlaridan biridir. Bu, shuningdek, faqat bitta sohaga e'tibor qaratish o'rniga, musiqa ta'limining barcha jabhalarini ko'rib chiqadigan yagona tashkilotdir. 1907-yilda tashkil etilganidan beri NAFME a'zolari o'rganuvchilarga faqat eng yaxshi va malakali o'qituvchilar tomonidan o'qitiladigan muvozanatli, keng qamrovli va yuqori sifatli musiqa ta'lim dasturidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun harakat qiladi. NAFME mahalliy, shtat va milliy darajada ishlaydi, kasbiy rivojlanish tadbirlarini o'tkazadi, o'qituvchilar, ota-onalar va bolalar uchun resurslarni taqdim etadi, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun turli imkoniyatlarni taklif etadi.³⁸

Umuman olganda musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish Respublikamizdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish hamda shunga oid zamonaviy yondashuvlarni taklif etish, shuningdek, ta'lim amaliyotiga tatbiq qilish asosida takomillashtiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli "Uzlukciz ma'naviy tapbiya Konsepsiyasi" / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazaci", 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-con, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-con. <https://www.lex.uz/docs/4676839>.

³⁶<https://www.mtna.org/MTNA/Default.aspx?hkey=91963004-fbe4-4711-a192-b6293aedc31c&WebsiteKey=17496be1-f933-420c-81ba-c03a4662ddca>

³⁷ <https://thevault.musicarts.com/top-organizations-music-teachers/>

³⁸ <https://nafme.org/nea-awards-ncas-50000-grant-for-creating-a-community-for-all-learners/>



2. Norxujaev N., Ganieva G. Musiqa. 1-sinf. Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: 2021. – B. 7.
3. Ibrohimov O., Sadirov J. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. –T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 82 b.
4. Готсдинер А. Музыкальная психология. – М.: Просвещение,1993. –С. 38-77.
5. Мадорский Л.Р. Музыкальное воспитание ребенка. – М.: Айрис-пресс, 2011. – 128 с.
6. Кирнарская Д.К. Зачем нужно массовое музыкальное образование? Основной вопрос: педагогика – наука или искусство? // Художественное образование и наука. 2016. №3. – С. 44-54. <https://psy.su/feed/9417/>
7. Электрон манба: <https://manzur.uz/?p=47> М.Бекчанованинг композитор Р.Абдуллаев билан “Ёқимли мусиқа зиф ҳужайраларни жонлантиради” мавзусида ўтказилган интервьюси.
8. <https://psy.su/feed/9417/>
9. Allsup, R. E., & Shieh, E. (2012). Social Justice and Music Education. The Call for a Public Pedagogy. *Music Educators Journal*, 98(4), 47-51.
10. Arifin, H. M. (2015). The Influence of Competence, Motivation, and Organisational Culture to High School Teacher Job Satisfaction and Performance. *International Education Studies*, 8(1), 38.
11. Burnard, P., & Murphy, R. (2013). *Teaching music creatively*. London: Routledge.
12. Colwell, R., & Froehlich, H. (2015). *Sociology for music teachers*. London: Routledge.
13. Gerich, M., & Schmitz, B. (2016). Using Simulated Parent-Teacher Talks to Assess and Improve Prospective Teachers' Counseling Competence. *Journal of Education and Learning*, 5(2), 285.
14. De Bono, E. (1976). *Teaching thinking*. London: Temple Smith.
15. Hallam, S., Cross, I., & Thaut, M. (2016). *The Oxford handbook of music psychology*. Oxford: Oxford University Press;
16. Shadrin, N. S. (2009). *Personality Psychology: a textbook for students of psychology majors*. Pavlodar: Kereku.
17. Hancock, C. B. (2016). Is the Grass Greener? Current and Former Music Teachers' Perceptions a Year After Moving to a Different School or Leaving the Classroom. *Journal of Research in Music Education*, 63(4), 421-438.
18. <https://www.mtna.org/MTNA/Default.aspx?hkey=91963004-fbe4-4711-a192-b6293aedc31c&WebsiteKey=17496be1-f933-420c-81ba-c03a4662ddca>
19. <https://thevault.musicarts.com/top-organizations-music-teachers/>
20. <https://nafme.org/nea-awards-ncas-50000-grant-for-creating-a-community-for-all-learners/>
21. Электрон манба: <https://iiv.uz/oz/news/>
22. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1114625.pdf>